**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.01/2025.27.12.Ped.04.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**XALMUXAMEDOVA MAXBUBA ASLANOVNA**

# NAQSHBANDIYA TARIQATI VOSITASIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

**13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Chirchiq - 2026**

**UO‘K- 37.013.2;82.091**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical sciences**

**Xalmuxamedova Maxbuba Aslanovna**
Naqshbandiya tariqati vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishning nazariy-pedagogik asoslari …….3

**Халмухамедова Махбуба Аслановна**
Теоретико-педагогические основы повышения профессиональной компетентности будущих учителей посредством накшбандийского тариката…….....25

**Khalmukhamedova Makhbuba Aslanovna**
Theoretical and pedagogical basis for increasing the professional competence of future teachers through the naqshbandi tariqat……...49

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**
Список опубликованных работ
List of publications …….....55

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.01/2025.27.12.Ped.04.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**XALMUXAMEDOVA MAXBUBA ASLANOVNA**

# NAQSHBANDIYA TARIQATI VOSITASIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

**13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Chirchiq - 2026**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Ped8087 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Chirchiq davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.cspu.uz) va “Ziyonet” axborot-ta’lim portali www.ziyonet.uz manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar**: **Jumanova Fatima Uralovna**
pedagogika fanlari nomzodi, professor

**Rasmiy opponentlar**:

**Musurmonov Raxmatilla**
pedagogika fanlari doktori, dotsent

**Xudoyqulov Xol Jumayevich**
pedagogika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:** **Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi DSc.01/2025.27.12.Ped.04.02 raqamli ilmiy kengash qoshidagi seminarning 2026 yil “___”_____ soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko‘chasi, 104-uy.) Tel.: (99870) 712-27-55; faks: (99870) 712-45-41; e-mail: chdpukengash@umail.uz)

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining axborot resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahar, Amir Temur ko‘chasi, 104-uy. Tel.: (99870) 712-27-55.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil “___”_____ kuni tarqatildi.
(2026 yil “___”_____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

**U.N.Xodjamqulov**
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, p.f.d., professor

**F.T.Rajabov**
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi v.b., p.f.d., dotsent

**R.A.Eshchanov**
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon ta'lim tizimi amaliyotida talabalarning texnologik tafakkuri va ijodkorlik qobiliyatlarini vitagen ta'lim texnologiyalari asosida rivojlantirishga e'tibor kuchaymoqda. Insoniyat tomonidan yaratilgan boy tajriba va an'analar vositasida innovatsion ta'lim muhitini yaratish va talabalarda kasbiy kompetensiyalarni qaror toptirish ajdodlar tomonidan yaratilgan ta'limotlarni chuqur o'rganishni taqozo qiladi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (Organisation for Economic Co-operation and Development, OECD)ning maktab ta'limi sifatini baholashga qaratilgan tadqiqotlarida ta'limni hayotga yaqinlashtirish va integratsiya jarayonlarini kuchaytirish ustuvor maqsad sifatida belgilangan va unda ta'lim oluvchilarda tayanch va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv metodika hamda texnologiyalaridan foydalanish talabalarni kasbiy tayyorlashning asosi sifatida e'tirof etiladi. Zamonaviy ta'lim konsepsiyalarida nafaqat professional bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, balki shaxsning ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlash ham muhim pedagogik vazifa sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan, ta'lim jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlar, tarixiy-ma'naviy meros hamda tasavvufiy ta'limotlarning tarbiyaviy imkoniyatlaridan samarali foydalanish zarurati ortib bormoqda.

Hozirgi kunda jahonning yetakchi ilmiy markazlari, jumladan, Malayziya Xalqaro Islom universiteti, Turkiyaning Marmara va Saljuq universitetlari, shuningdek, Germaniyadagi Leypsig universiteti kabi markazlarda naqshbandiya ta'limotining pedagogik potentsiali chuqur o'rganilmoqda. Ushbu tadqiqotlarda sufiylikning "ustoz-shogird" an'anasi zamonaviy mentorlik va kouching tizimlari bilan integratsiya qilinib, bo'lajak mutaxassislarning intellektual va ma'naviy rivojlanish modellari ishlab chiqilmoqda. Xususan, Naqshbandning "Hush dar dam" va "Safar dar vatan" kabi tamoyillari asosida o'qituvchilarning kognitiv barqarorligini, hissiy intellektini (EQ) hamda kasbiy etikasini shakllantirishning psixopedagogik mexanizmlari ilmiy asoslab berilmoqda. Mazkur markazlar tasavvufiy merosni shunchaki tarixiy manba emas, balki pedagog kadrlar kompetentligini oshirishda "ma'naviy filtr" va akmeologik rivojlanish omili sifatida baholab, ta'lim tizimini insonparvarlashtirishning yangi metodologiyasini taklif etmoqda.

Mamlakatimiz taraqqiyotining bugungi bosqichida oliy ta'limga tizimni tubdan isloh qilish, bo'lg'usi pedagoglarning har tomonlama mukammal, bilimli va ma'nan yetuk etib tarbiyalash vazifalari qo'yilmoqda. So'nggi yillarda ta'lim tizimida ro'y berayotgan o'zgarishlar bo'lg'usi pedagogning malakasi, kasbiy mahoratiga, uning ma'naviy dunyoqarashiga bo'lgan talabni yangicha talqinda ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish"[1] ustuvor vazifalar sifatida belgilanib, bu borada kasbiy kompetentlikni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'limni

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 yil, 6-son, 70-modda.

yo‘lga qo‘yishga zarurat kuchaymoqda. Ushbu nuqtai nazardan, naqshbandiya tariqatining ma’naviy-axloqiy tamoyillarini pedagogik kompetentlik bilan integratsiya qilish, ularning bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy shakllanishiga ta’sirini ilmiy jihatdan asoslash hamda ushbu jarayonning nazariy-pedagogik asoslarini ishlab chiqish mamlakatimiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga xizmat qiladigan dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12-iyuldagi PF-4988-son “Abduxoliq G‘ijduvoniy tavalludining 915 yilligini va Baxouddin Naqshband tavalludining 700 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish hamda uni o‘tkazish to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4-sentabrdagi PQ-4436-son Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 14-apreldagi 213-son “Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur faoliyat bilan bog‘liq boshqa me’yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarining ustuvor yo‘nalis’hlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Sharq mutafakkirlarining ilmiy-ma’rifiy qarashlarini turli aspektlarda o‘rgangan sharqshunos olimlaridan V.A.Gordlevskiy, A.A.Semyonov, O.F.Akimushkin, Ye.Ye.Bertels, Idris Shox, Annemari Shimmel, Uilyam Chittak, Seyyed Xosseyn Nasr, N.Komilov, I.Haqqulov, U.Qosimov, K.Qilicheva, G.K.Zaripovalarning tadqiqotlari mazkur dissertatsiya uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qildi.

Bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligi mavzusida juda ko‘plab xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar ilmiy izlanishlar olib borganlar. Xususan, mamlakatimizda oliy ta’lim jarayonida bo‘lajak o‘qituvchi shaxsini shakllantirish, o‘z-o‘zini boshqarish asosida o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish va kasbiy shakllanganlikni tashxislash masalalari B.R.Djurayeva, F.U.Jumanova, N.Sayidaxmedov, N.Gaipova, K.Xoshimovlarning; o‘qituvchining kasbiy mahorati, kasbiy kompetensiyalarni takomillashtirish M.Ochilov, G.A.Qurbonova, R.Ishmuxamedovlarning; ta’lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari, talabalarning dunyoqarashlari, kasbiy va muloqot madaniyatini rivojlantirish yo‘llari va usullari, shuningdek, o‘qituvchilarni kasbiy tarbiyalash va tayyorlash muammolari R.Haydarov, SH.Mardonov, X.Ibragimov, N.A.Muslimov, O.A.Qo‘ysinov, U.Begimqulov, B.Xodjayevlarning tadqiqotlarida o‘rganilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlarida texnologik ta’limni o‘qitish, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy mahorati va kompetensiyalarini rivojlantirish muammolari, bilim, malaka, ko‘nikma va kompetensiya tushunchalarining o‘zaro munosabati, o‘qituvchilar tayyorlashda zamonaviy pedagogik yondashuvlarning o‘rni, bu borada xalqaro ilg‘or tajribalarni o‘rganish masalalari A.K.Markova, V.P. Toporovskiy, T.M. Sorokina, O.A.Kozireva, M.I.Lukyanova, B.M.Tleuberdiyev, A.N.Udalova, V.P.Bespalko, G.K.Selevko, B.S.Gershunskiy, V.A.Yakunin, S.Kondrateva, G.R.Lomakina, S.S.Saveleva, F.Samoylenko, S.D.Yakusheva, O.S.Bulatovalarning tadqiqotlarida yoritilgan.

Xorijlik olimlardan R.Riggs, K.Rojers, R.Shteyner, F.Frebel, R.P.Patak, K.Byuler, J.Dyui, J.Piaje, A.Bandura, K.Valters, J.Freyberg, A.X.Maslooy, J.Kiyelven, L.Soxen, K.Morrison, D.Merill, S.Tompsonlarning tadqiqotlarida o‘quvchilarga kasb-hunar o‘rgatish va ularning texnologik tafakkurini rivojlantirish orqali ularning ijtimoiylashuvini ta’minlash, yoshlarning ijodkorlik kompetensiyasini shakllantirish, ularni rag‘batlantirish, amaliy mehnat orqali o‘quvchilar tafakkurini rivojlantirishning psixofiziologik omillari kabi masalalar o‘z ifodasini topgan.

Yuqoridagi tadqiqotlarda Sharq mutafakkirlarining ilmiy-ma’rifiy qarashlari, xususan, tasavvuf ta’limotining mazmun-mohiyati, genezisi va mutasavvuflarning ta’lim va tarbiya borasidagi qarashlari; bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini oshirish muammosi, unga xos pedagogik shart-sharoitlar, metodika masalalari yoritilgan. Ammo ularda muayyan mutasavvuf allomaning ta’limoti va qarashlari asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini oshirish muammosi monografik planda tadqiq etilmagan va ushbu muammoni o‘rganishga bo‘lgan zarurat mazkur dissertatsiya mavzusini belgilab berdi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi**. Dissertatsiya tadqiqoti Chirchiq davlat pedagogika universitetining “Pedagogik ta’lim innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslari va amaliy mexanizmlari” (2018-2022 yy.) mavzusidagi strategik ilmiy tadqiqotlar rejasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** naqshbandiya tariqati asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishning nazariy-pedagogik asoslarini rivojlantirish bo‘icha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari**:

kasbiy kompetentlikni naqshbandiya tariqati asosida rivojlantirish tamoyillarini aniqlshtirish;

bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini takomillashtirish;

Naqshbandning nazariy-falsafiy va tasavvufiy qarashlari asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishning pedagogik modelini ishlab chiqish;

naqshbandiya tariqati ta’limotidagi ustoz-shogird an’analarining ilg‘or jihatlarini ta’lim amaliyotiga tatbiq etish mexanizmlarini takomillashtirish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini naqshbandiya ta’limoti asosida takomillashtirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga 2018-2022-yillarda Buxoro davlat universiteti, Guliston davlat pedagogika universiteti va Qo‘qon davlat pedagogika institutining jami 528 nafar talabalari jalb etilgan.

**Tadqiqotning predmeti**ni bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini naqshbandiya tariqati asosida takomillashtirishning nazariy-pedagogik asoslari, mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda ilmiy manbalarni qiyosiy-tahliliy o‘rganish, tahlil qilish; suhbat, kuzatish, anketa, test, ekspert baholash, eksperiment, matematik-statistik qayta ishlash usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

kasbiy kompetentlikni naqshbandiya ta’limoti qadriyatlari asosida rivojlantirish tamoyillari kasbiy kompetentlik darajasini oshirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari, ta’lim texnologiyasining tashkiliy shakllari, ustoz-shogird an’analari asosida talabalarning mustaqil faoliyatini tashkil etish hamda ta’lim resurslarini qadriyatlar negizida didaktik jihatdan integratsiyalash orqali aniqlashtirilgan;

bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari talabalarda kasbiy kompetentlikni shakllantirish mazmuni, o‘qitish tizimini tashkil etishning akseologik, motivatsion, hissiy, irodaviy va amaliy imkoniyatlarini naqshbandiya qadriyatlariga asoslangan holda pragmatik va empirik omillar vositasida rivojlantirish asosida takomillashtirilgan;

bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishning pedagogik modeli talabalarda kasbiy kompetentlikni takomillashtirishda naqshbandiya tariqatining funksional, professional va perseptiv xususiyatlarini texnologik ta’limni o‘qitishga kvalimetrik mezonlar orqali tatbiq etish asosida takomillashtirilgan;

naqshbandiya tariqati ta’limotidagi ustoz-shogird an’analarining ilg‘or jihatlarini ta’lim amaliyotiga tatbiq etish mexanizmlari talabalarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishning miqdor va sifat ko‘rsatkichlarini oshirishning mezonlarini akseologik mezon ko‘rsatkichlariga muvofiq nazariy-metodik jihatdan aniqlashtirish asosida ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari:**

texnologik ta’lim yo‘nalishi talabalarida kasbiy kompetentlikni shakllantirish uchun naqshbandiya qadriyatlariga asoslangan o‘qitish tizimini tashkil etishning mezon va ko‘rsatkichlari aniqlashtirilgan;

naqshbandiya ta’limotidagi ustoz-shogird an’analarini ta’lim amaliyotiga tatbiq etishning aniq mexanizmlari ishlab chiqilgan;

naqshbandiya qadriyatlari asosida kasbiy kompetentlikni shakllantirishga xizmat qiluvchi amaliy mashg‘ulot va mustaqil ish topshiriqlari namunaviy tarzda ishlab chiqilgan;

bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy va ma’naviy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan mualliflik metodikalari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan neyropedagogik texnologiyalarning nazariy-metodologik asoslari, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdagi kognitiv va metakognitiv yondashuvlarning ilmiy jihatdan asoslanganligi, ularning milliy va xalqaro ta’lim amaliyotida qo‘llanilishi, tanqidiy tahlil, mantiqiy mulohaza va xulosa chiqarish jarayonlarini qo‘llab-quvvatlovchi neyrofiziologik mexanizmlarning kognitiv psixologiya tadqiqotlari bilan tasdiqlanganligi, pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalarining matematik-statistik tahlil orqali baholanganligi, tajriba va nazorat guruhlari tajribadan oldingi va tajribadan keyingi o‘rtacha o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari $\chi 2$ matematik statistika metodi yordamida aniqlanganligi, tadqiqotda qo‘llanilgan metodlarning ta’lim jarayoniga mos kelishi, neyropedagogik yondashuvlarni tanqidiy fikrlashni rivojlantirish jarayoniga integratsiya qilish bo‘yicha amaliy takliflar joriy etilganligi va ularning pedagogik hamda akademik muassasalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati naqshbandiya tariqati ta’limotidagi tasavvufiy-falsafiy qarashlarining pedagogik aspektda o‘rganilganligi, naqshbandiya tariqatining inson ruhiyati orqali ta’sir ko‘rsatuvchi mexanizmlari tahlil qilinganligi, tariqat qoidalari, zikr, suhbat, so‘z orqali insonga zohiriy va botiniy tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish, kasb-hunarning inson ma’naviyati va hayot tarzidagi o‘rni, kasbiy bilim olishga undovchi motivator sifatida foydalanishning pedagogik imkoniyatlari, texnologik ta’lim yo‘nalishi talabalarida kasbiy kompetensiyani takomillashtirish bo‘yicha nazariy xulosa va takliflar ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati texnologik ta’lim yo‘nalishi talabalarining kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishda akseologik yondashuv, xususan, Bahouddin Naqshbandning falsafiy va tasavvufiy qarashlaridan foydalanish mexanizmlari, metodik ta’minoti va didaktik vositalari takomillashtirilganligi, naqshbandiya tariqati asosida texnologik ta’lim yo‘nalishi talabalari kasbiy kompetentligini takomillashtirishning pedagogik modelini ishlab chiqilganligi, texnologik ta’lim yo‘nalishlarida o‘qitish texnologiyasini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilganligi va ulardan pedagogik oliy ta’lim muassasalarining texnologik ta’lim yo‘nalishlari uchun o‘quv-metodik adabiyotlar tayyorlashda, ta’lim jarayonida va o‘qituvchilar malakasini oshirish tizimida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi.** Pedagogik oliy ta’lim muassasalari texnologik ta’lim yo‘nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini naqshbandiya tariqati ta’limoti asosida takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

kasbiy kompetentlikni naqshbandiya ta’limoti qadriyatlari asosida rivojlantirish tamoyillari kasbiy kompetentlik darajasini oshirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari, ta’lim texnologiyasining tashkiliy shakllari, ustoz-shogird an’analari asosida talabalarning mustaqil faoliyatini tashkil etish hamda ta’lim resurslarini qadriyatlar negizida didaktik jihatdan integratsiyalash ga doir takliflar “Texnologiya

ta’limi praktikum. Servis xizmati (tikuvchilik)” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 27-martdagi 68-sonli buyrug‘iga asosan № 68-207 raqamli nashr guvohnomasi). Natijada, pedagogik oliy ta’lim muassasalari texnologik ta’lim yo‘nalishining didaktik ta’minoti takomillashtirilgan;

bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari talabalarda kasbiy kompetentlikni shakllantirish mazmuni, o‘qitish tizimini tashkil etishning akseologik, motivatsion, hissiy, irodaviy va amaliy imkoniyatlarini naqshbandiya qadriyatlariga asoslangan holda pragmatik va empirik omillar vositasida rivojlantirishga oid taklif va tavsiyalar T.N.Qori-Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi Milliy instituti Qoraqalpog‘iston filiali tomonidan bajarilgan A1-XT-0-92997 raqamli “Yoshlarni umuminsoniy, milliy va tarixiy qadriyatlar uyg‘unligi asosida ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning muammolari” mavzusidagi fundamental loyihasini amalga oshirishda foydalanildi (T.N.Qori-Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi Milliy instituti Qoraqalpog‘iston filialining 2025.03.09 dagi 348-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, tarixiy qadriyatlar, ajdodlarimizning boy ma’naviy merosini o‘rganish orqali talabalarda kasbiy kompetentlikni yanada takomillashtirishga xizmat qilgan;

bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishning pedagogik modeli talabalarda kasbiy kompetentlikni takomillashtirishda naqshbandiya tariqatining funksional, professional va perseptiv xususiyatlarini texnologik ta’limni o‘qitishga kvalimetrik mezonlar O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston-24” ijodiy birlashmasi “O‘zbekiston” teleradiokanalida 2025-yil avgust va dekabr oylarida efirga uzatilgan “O‘zbekiston yoshlari” hamda “Ta’lim va taraqqiyot” nomli dasturlar ssenariylarini tayyorlashda (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi 2026 yil 5-martdagi 05-09-385-sonli dalolatnomasi). Natijada, naqshbandiya tariqatidagi ustoz-shogird an’analarining ilg‘or jihatlarini ta’lim amaliyotiga tatbiq etish va ommalashtirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Tadqiqot natijalari bo‘yicha 16 ta ilmiy ish, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan 2 tasi xorijiy va 5 tasi respublika jurnallarida chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, 147 sahifa matn, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “**Kirish”** qismida tadqiqot ishining dolzarbligi asoslab berilgan, maqsadi, ob’ekti, predmeti va vazifalari belgilangan, tadqiqot ishini tashkil etishning nazariy va metodologik asoslari ta’riflangan, ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy

ahamiyati ochib berilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Ajdodlar merosi asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlanadi va unda tasavvuf va naqshbandiya ta’limotining pedagogik-ma’rifiy asoslari ochib berilgan, kasbiy kompetentlikni takomillashtirishda naqshbandiya ta'limotining akseologik imkoniyatlari va bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentlik darajalari aniqlashtirilgan.

Dissertatsiyada tasavvuf ta’limotining paydo bo‘lishi, rivojlanish tadriji, mutasavvuf olimlar va uning tariqatlari pedagogik aspektda tadqiq qilingan. Xususan, rifo‘iya, shoziliya, qodiriya, mavlaviya, yassaviya, kubroviya, naqshbandiya kabi tariqatlarning o‘ziga xosliklari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Naqshbandiya – tasavvuf tariqatlarining eng maqbuli bo‘lib, u xojagon tariqati sifatida XII asrda Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy (1103 – 1179 yillar) tomonidan shakllantirildi. XIV asrda esa Xoja Bahouddin Naqshband (1318 – 1389 yillar) tarafidan takomilga yetkazildi va xojagon-naqshbandiya tariqati, deb yuritildi.

XV asrdan boshlab Abdurahmon Jomiy tashabbusi bilan “Naqshbandiya”, deya nomlandi. Bugungi kunda dunyoning ko‘plab mamlakatlarida bu tariqat davomchilari bor.

“Naqshband” (naqsh soluvchi) nomi bilan mashhur bo‘lgan Bahouddin Muhammad 1318 yilda Buxoro shahri yaqinidagi Qasri Hinduvon qishlog‘ida tug‘ilganlar. Ilohiy iste’dod sohibi bo‘lgan bu zot avval Xoja Muhammad Boboyi Samosiy, so‘ngra Sayyid Amir Kulol qo‘lida tarbiyalanib, tariqat odobi, tasavvuf ta’limotini egalladilar. Shu bilan birga, Xalil ota va Qusam Shayx suhbatlarida bo‘ldilar. Ammo ul zotning o‘z e’tiroflariga ko‘ra, butun qalblari bilan Xojai Buzurg – Xoja Abduxoliq G‘ijduvoniy ruhoniyatiga bog‘langanlar.

Tariqatda kamolotga 3 xil yo‘l bilan erishiladi. Bular:

1. Muroqaba: o‘z-o‘zini anglash, fikrlash;

2.Mushohada: kuzatmoq, his etmoq;

3.Musohaba: o‘zaro suhbat qurmoq, bahslashmoq.

Dissertatsiyada ushbu kamolot yo‘llari tahlil qilingan va ularning o‘qituvchilik kasbidagi mohiyati ochib berilgan.

Naqshbandiya tariqatida inson barcha ishda komillikka erishmog‘i farz sanaladi. Bu Allohga bo‘lgan kuchli muhabbat bo‘ladimi, o‘z kasbiga muhabbatmi, barcha ishda komillikka erishmoq tariqatning asosi hisoblanadi. Talabalarda ushbu komillik kasbiy kompetentlik orqali namoyon bo‘ladi. Pedagogning kasbiy kompetentligini oshirishga juda ko‘p faktorlar ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu faoliyat pedagogning bevosita o‘quvchi bilan bo‘lgan munosabati, bilim berish, tarbiya berish, o‘zaro til topishish, o‘zining bilim va ko‘nikmalarini o‘quvchiga yetkaza olish hususiyatlaridan tashkil topadi.

Dissertatsiyada “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalarining o‘zaro aloqadorligi va farqli jihatlari ochib berilgan. **Kasbiy kompetentlik** faqatgina o‘z sohasi bo‘yicha chuqur bilim va malakaga ega bo‘lishgina emas, balki har bir

mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarni o‘zlashtirishni talab etadi, shuningdek o‘z sohasi bo‘yicha bilimlarni muttasil boyitib borish, yangi zamonaviy axborot-kommunikasion texnologiyalardan foydalanish, yangi ma’lumotlarni izlash va o‘z ustida tinimsiz ishlashni taqozo etadi. Tadqiqotda bu borada bir qancha mahalliy va xorijiy olimlarning talqinlari keltirilgan.

O‘qituvchi kasbiy kompetentligining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

1. Intellektual-pedagogik kompetentlik - olingan bilim va tajribani samarali o‘qitish va tarbiyalash uchun kasbiy faoliyatda qo‘llash qobiliyati, o‘qituvchining innovatsiyalarga intilish qobiliyati;

2. Kommunikativ kompetentlik - muhim kasbiy sifat bo‘lib nutq qobiliyati, tinglash qobiliyati, ekstraversiya va empatiyalarni o‘z ichiga oladi;

3. Axborot kompetentligi - o‘qituvchining o‘zi, o‘quvchilari, ota-onalari, hamkasblari haqida ma’lumotlarga egaligi;

4. Tartibga solish kompetentligi - o‘qituvchining o‘z xatti-harakatlarini boshqarish, his-tuyg‘ularini nazorat qilish va refleksiv qobiliyati, stressga chidamliligi.

Naqshbandiya tariqatining shiori — “**Dil ba yoru, dast ba kor”** (Dil Allohda, qo‘l mehnatda) — har bir inson, ayniqsa, bo‘lajak o‘qituvchi uchun ma’naviy va kasbiy hayot birligini anglatadi.

Bu qadriyatlar tizimi shaxsning ichki dunyosini boyitish, jamiyatga foydali inson bo‘lib yetishish va o‘z kasbiga sadoqat bilan yondashish tamoyillarini shakllantiradi. Halollik, poklik, fidoyilik, xizmat, sabr-toqat va tavozelik kabi qadriyatlar naqshbandiya ta’limotining asosiy ustunlari hisoblanib, bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Kasbiy kompetentlik tushunchasiga akseologik tomondan nazar tashlaydigan bo‘lsak, naqshbandiya tariqati ajdodlar tomonidan bizgacha yetib kelgan qadriyatlar sanaladi. Shu sababli biz ishimizni akseologik yondashuv orqali tahil qilishni lozim topdik.

Jamiyat rivojining muayyan davriga aksiologik nuqtai nazaridan qarash shu davrning ijtimoiy tuzilishiga biror bir umumiy qadriyatlar tizimi mos kelishini va u ijtimoiy voqealar bilan bog‘liq tarzda namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Umuminsoniy, milliy, diniy, sinfiy, shaxsiy va boshqa qadriyat shakllari ushbu tizimda muayyan o‘rinni egallaydilar.

Kasbiy kompetentlikni baholashda faqat umumiy pedagogik mezonlarga tayanish emas, balki qadriyatlar tizimi orqali shaxsiy-axloqiy o‘sishni ham hisobga olish zamonaviy ta’limning ustuvor talabi hisoblanadi. Shu ma’noda, naqshbandiya ta’limoti asosida shakllangan qadriyatlar — halollik, xizmat va ixlos — bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish va baholash uchun ishonchli mezonlar sifatida xizmat qilishi mumkin.

**1. Halollik qadriyati asosida bilim mezonini yo‘naltirish.** Naqshbandiya ta’limotida halollik shaxsiy va ijtimoiy hayotning eng asosiy tayanchlaridan biri

sifatida qaraladi. Bo‘lajak o‘qituvchi uchun bilim mezonini baholashda halollik qadriyati shuni anglatadiki, o‘qituvchi o‘z bilimini vijdonan egallashi, talabalarga aniq, asosli va haqqoniy bilimlar berishga intilishi zarur.

**Shu asosda bilim mezoni indikatorlari quyidagilardan iborat:**

*Bilimni egallashda va uni talabalarga yetkazishda haqiqatparvarlik va xolislik.*

*O‘z faniga doir bilimlarni bezashsiz, real manbalarga tayangan holda tushuntira olish.*

*Bilim darajasini oshirish uchun halol va chuqur izlanish olib borish.*

**2. Xizmat qadriyati asosida ko‘nikma mezonini yo‘naltirish.** Naqshbandiya ta’limotida xizmat boshqalarga beminnat yordam berish, o‘z manfaatlarini jamiyat farovonligi uchun qurbon qilish kabi yuksak insoniy fazilat sifatida qadrlangan. Bo‘lajak o‘qituvchi kasbiy faoliyatda o‘z ko‘nikmalarini nafaqat shaxsiy yutuqlar uchun, balki talabalarning rivoji va jamiyat manfaatlari uchun xizmatga safarbar qilishi lozim.

**Shu asosda bilim mezoni indikatorlari quyidagilardan iborat:**

*O‘quvchilar ehtiyojlarini hisobga olgan holda dars metodikasini moslashtirish.*

*Ta’lim jarayonida fidoyilik va xizmat ruhini namoyon etish.*

*Jamoadagi hamkorlik va yordam madaniyatini rivojlantirish orqali faol ishtirok etish.*

**3. Ixlos qadriyati asosida qadriyatlar mezonini yo‘naltirish.** Naqshbandiya ta’limotida ixlos chin qalb bilan amalga oshirilgan har qanday faoliyatning muvaffaqiyati va qabul qilinganligini anglatadi. O‘qituvchilik kasbida esa ixlos bilim berish jarayonining asosiy ruhiy tayanchi sifatida namoyon bo‘ladi. Talabaga bo‘lgan ixlos, kasbga bo‘lgan ixlos va maqsadga bo‘lgan ixlos — bularning barchasi pedagogik kompetentlikning asosiy sifatlarini belgilaydi.

**Shu asosda bilim mezoni indikatorlari quyidagilardan iborat:**

*Ta’lim jarayonida samimiylik, mehr va chin dildan xizmat qilishni namoyon etish.*

*Kasbiy faoliyatda mustahkam motivatsiya va sadoqatni ko‘rsatish.*

*O‘z ustozlariga, o‘quvchilarga va kasbiga bo‘lgan ixlosni kundalik faoliyatda ifoda eta olish.*

Naqshbandiya qadriyatlari: halollik, xizmat va ixlos kasbiy kompetentlikni faqat tashqi faoliyatda emas, balki ichki motivatsiya, axloqiy tozalik va jamiyatga xizmat qilish ruhida ham shakllantirishni ta’minlaydi. Bu qadriyatlar asosida yo‘naltirilgan bilim, ko‘nikma va qadriyatlar mezonlari bo‘lajak o‘qituvchilarning nafaqat bilimdon va tajribali mutaxassis, balki ma’naviy barkamol, ijtimoiy mas’uliyatli va fidoyi shaxs sifatida rivojlanishiga xizmat qiladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini tizimli ravishda baholash va rivojlantirish uchun ularning rivojlanish darajalarini aniq mezonlar asosida belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Kasbiy kompetentlik darajalari shaxsning

bilim, ko‘nikma va qadriyatlar asosidagi kasbiy faoliyatini qanday darajada amalga oshirishini aniqlash imkonini beradi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini naqshbandiya ta’limoti asosida takomillashtirish tizimi” deb nomlanadi va unda** kasbiy kompetentlikni naqshbandiya tariqati asosida rivojlantirish tamoyillari aniqlshtirilgan, bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetentlikni takomillashtirishning ustoz-shogird an’analari tadqiq etilgan va kasbiy kompetentlik va uni amaliyotga tatbiq etishning didaktik imkoniyatlari ochib berilgan.

Talabalarda kasbiy kompetentlikni shakllantirish tamoyillarini quyidagi guruhlarga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiqdir:

-metodologik tamoyillar;

-didaktik tamoyillar;

- madaniy-ma’naviy tamoyillar;

- psixologik tamoyillar.

Dissertatsiyada ushbu tamoyillar pedagogik aspektda atroflicha tahlil qilingan. Ularning naqshbandiya tariqati bilan aloqadorligi asoslangan.

Ustoz-shogird an’anasi tarixan insoniyat ma’naviy va ilmiy taraqqiyotining ajralmas qismi bo‘lib kelgan. Bu an’ana shogirdning faqat bilim olishini emas, balki axloqiy, ma’naviy va kasbiy yetuklikka erishishini ta’minlashni ko‘zlagan.

Naqshbandiya ta’limotida tarixan shogirdni nafaqat ilmiy jihatdan, balki ruhiy-ma’naviy tomondan ham yetuk inson sifatida tarbiyalashga alohida e’tibor qaratgan. Ustoz va shogird o‘rtasidagi munosabatlar bu ta’limotda oddiy bilim uzatish munosabati emas, balki ruhiy yetakchilik va ma’naviy yetilish yo‘li sifatida qaraladi. Ustoz shogird uchun ilm va axloq namunasiga aylanadi, shogird esa fidoyilik, ixlos va hurmat bilan ustozidan saboq oladi. Naqshbandiya tizimida shakllangan ustoz-shogird an’anasi ma’lum tamoyillarga asoslanadi va aynan shu tamoyillar shogirdni ilmda, axloqda va kasbda yetuk inson qilib shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Naqshbandiya ta’limotida shogird tarbiyasida ilm berish bilan bir qatorda, fidoyilik, ixlos, poklik va sabr-toqat kabi yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirishga katta e’tibor qaratiladi. Ustoz o‘zining shaxsiy namunasi, nasihatlari va kundalik amaliy faoliyati orqali bu fazilatlarni shogird qalbiga singdiradi.

**Fidoyilik** shogirdni o‘zini jamiyat manfaatlari va boshqalar kamoloti yo‘lida beminnat xizmat qilishga tayyorlaydi. Shogird o‘z manfaatlarini emas, balki umumiy ezgu maqsadlarni ustuvor qo‘yishga o‘rgatiladi.

**Ixlos** — shogirdning ustoziga va ta’lim olayotgan yo‘liga bo‘lgan samimiy va chin yurakdan bog‘lanishini anglatadi. Ixlosli shogird ilm olishda va kamolot sari intilishda qat’iyatli va sadoqatli bo‘ladi.

**Poklik** shogirdni nafaqat zohiriy, balki botiniy tozalikka intilishiga undaydi. Ruhiy va ma’naviy poklik shogirdning so‘zlari, niyatlari va amallari orqali namoyon bo‘lishi kutiladi.

**Sabr-toqat** esa shogirdni barcha qiyinchiliklar va sinovlar oldida mustahkam turishga, o‘z maqsadidan qaytmasdan ilm va axloq yo‘lida sobitqadam bo‘lishga o‘rgatadi.

Ustoz bu fazilatlarni nafaqat dars jarayonida, balki kundalik hayotda o‘zining xatti-harakati bilan shogirdga namuna qilib ko‘rsatadi. Shu tarzda shogirdlarda mustahkam ma’naviy asos va kasbiy yetuklik shakllanadi.

***Mualiflik ta’rifi:*** Naqshbandiya ta’limotidagi ustoz-shogird tajribasi shogirdni nafaqat bilimli, balki yuqori ma’naviy-axloqiy fazilatlar egasi sifatida yetishtirishning noyob modeli hisoblanadi. Ilm, ixlos, fidoyilik, poklik va sabr-toqat kabi qadriyatlar ustozning shaxsiy namunasi va tarbiyaviy ta’siri orqali shogird qalbiga chuqur singdiriladi va bunig natijasida shogirdlarda mustahkam ma’naviy asos va kasbiy yetuklik shakllanadi.

Ustoz-shogird munosabatlari naqshbandiya ta’limotida ilmiy va ma’naviy tarbiyaning asosiy mexanizmi sifatida qaraladi. Bu munosabatlarda shakllanadigan asosiy qadriyatlar: ixlos, xizmat, hurmat va mustaqil fikr bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda bevosita ta’sir ko‘rsatadi Har bir qadriyat kasbiy kompetentlikning muayyan komponentini shakllantirishga xizmat qiladi:

**1. Ixlos** — bilim komponentining shakllanishi. Ixlos shogirdning ilm olish jarayoniga bo‘lgan chin dildan yondashuvini, bilimga hurmat va unga fidokorona intilishini ifodalaydi. Ustozga va ilmga ixlos bilan yondashgan shogird o‘z ustida mustaqil ishlashni, chuqur va puxta bilim egallashni maqsad qiladi. Ixlos fazilati talabalarda bilimga bo‘lgan ichki ehtiyojni kuchaytiradi va ular bilim olishda faollik va mustahkam motivatsiyaga ega bo‘ladilar.

**2. Xizmat — ko‘nikma va amaliy faoliyat komponentining shakllanishi.** Xizmat qadriyati orqali shogird nafaqat bilim o‘zlashtiradi, balki uni jamiyat manfaati uchun qo‘llash, o‘z kasbiy vazifalarini vijdonan ado etish ko‘nikmasini ham shakllantiradi. Shogird ustoz va jamoaga samimiy xizmat qilish orqali amaliy tajriba to‘playdi va professional faoliyat uchun zarur ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Xizmat ruhi asosida shakllangan shogird jamoadagi o‘z o‘rnini anglaydi, kasbiy mas’uliyat va fidoyilik ko‘rsatadi.

**3. Hurmat — axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy kompetensiyalar shakllanishi.** Hurmat qadriyati shogirdda ustozga, bilimga, jamoadoshlariga va o‘quvchilarga nisbatan axloqiy munosabatni shakllantiradi. Hurmat tuyg‘usi orqali shogird muloqot madaniyatini, ijtimoiy normalarni va kasbiy etiketni o‘zlashtiradi. Hurmatga asoslangan tarbiya bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy etikani hurmat qiladigan, o‘z va boshqalarning fikriga e’tibor bilan yondashadigan shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

**4. Mustaqil fikr — tanqidiy fikrlash va ijodiy kompetentlikning shakllanishi.** Naqshbandiya ta’limotida mustaqil fikrlash shogirdning ruhiy va intellektual kamolotining zaruriy sharti sifatida qaraladi. Mustaqil fikrlovchi shogird faqat ustoz bergan bilimlarni mexanik tarzda qabul qilmaydi, balki uni tahlil qiladi, chuqurlashtiradi va hayotiy faoliyatida tatbiq etishga harakat qiladi.

Mustaqil fikr fazilati shogirdda tanqidiy tahlil, yangicha qaror qabul qilish va kreativ fikrlash kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Dissertatsiyada naqshbandiya tariqatida ustoz-shogird an’anasining o‘ziga xos jihatlari aniqlashtirilgan (1-rasm).




**1-rasm.Naqshbandiya tariqatida ustoz-shogird an’anasining o‘ziga xos jihatlari**

Talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda qator omillardan foydalanish lozim. Ular talabalarda kasbiy kompetentlikni takomillashtirishning texnologik modelida o‘z aksini topdi (2-rasm).

Mazkur model texnologik ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar kasbiy kompetentligini takomillashtirish uchun tizimli va bosqichma-bosqich yondashuvni ifodalaydi.




**2-rasm. Talabalarda kasbiy kompetentlikni takomillashtirishning texnologik modeli**

Naqshbandiya tariqati vositasida oliy ta’lim muassasalari talabalarining kasbiy kompetentligini takomillashtirishni eng avvalo uning qoidalari ya’ni rashhalarini o‘rganishdan boshlanadi. Bu rashhalarning sakkiztasi Bahouddin Naqshbandning uvaysiy ustozi sanalmish Abduholiq G‘ijduvoniy hazratlari tomondan va uchtasi Bahouddin Naqshband tomonidan yaratilgandir. Ushbu qoidalarni hozirgi kunga tatbiq etish va talabalarning kasbiy kompetentligini oshirish sifatida metodologik tahlil qilish orqali ko‘rib chiqish joizdir.

**1. «Hush dar dam» (Ogohlik).** Hush so‘z aql-hush, hushyorlik ma’nolarini, dam esa nafas ma’nosini bildiradi. Bu shiordan har bir olingan va chiqarilgan nafasda xushyor bo‘lish, Allohni esdan chiqarmaslik ma’nosi o‘z aksini topgan.

Nafasga xushyor bo‘lmoq insonni o‘zligini tanishga olib keladigan eshikning kalitidir. O‘zligini anglamagan inson-o‘zgalarni ham tushuna olmaydi.

**2. «Nazar bar qadam» (Xushyorlik).** Qadamga nazar solish qoidasi kishining hayotida qo‘yadigan har bir qadami nazorat ostiga olinmoqligini ta’kidlaydi.

Bu qoidaga amal qilgan bo‘lg‘usi pedagog o‘z kasbiy faoliyati davomida o‘zini doimo nazorat qiladi, o‘ylamasdan harakat qilmaydi, har bir bajargan ishi, gapirgan gapi, chiqargan qarorini, qadamini o‘ylab bosadi.

**3. «Safar dar vatan» (Harakatchanlik).** Vatanga safar qilish bu shiorda har odamda asliga va Xaqqa safar qilish ma’nosi ilgari surilgan, ya’ni har qadamda asl maqsadga — Haq tomonga yurish. «Safar dar vatan» qoidasi, ichki chuqur ruhiy harakat bo‘lib, unda inson o‘z ichki olamida safar qiladi va bu harakat davomida inson o‘zini anglay boshlaydi.

**4. «Xilvat dar anjuman». (Jamiyatparvarlik).** Uning oddiy ifodasi jamoa ichida yakkalik yolg‘izlik demakdir. Hazratdan «tariqatingizning asosi nimadan iborat?», deb so‘raganlarida, "Xilvat dar anjuman ba zohir bo xalq va ba botin bo Haq",-deb javob berganlar.

Jamoada, insonlar orasida bo‘lsada yuragida, qalbida hamisha Allohga bo‘lgan muhabbati bo‘lmog‘i lozimdir. Lekin shu bilan birga jamiyatdan uzilmaslikka alohida ahamiyat berilgan.

**5. «Yodkard» (Onglilik).** Yod et. “yodkard” deb ataladi va bu til yoki dil zikri bilan bog‘liq masaladir. Bo‘lg‘usi pedagoglar ham ustozlaridan olgan bilimlarni qunt bilan egallab, bu ishga chin ko‘ngildan ixlos bilan qarashlari, qiyinchiliklarni sabr va bardosh bilan yengishlari lozimdir. Bu ularni albatta kelajakda o‘z kasbining yetuk mutaxassisi bo‘lishiga olib keladi.

**6.«Bozgasht» (Xolislik).** So‘ngra o‘t. Buning ma’nosi inson umrining foniyligi, undan albatta boqiy dunyoga qaytajakligi ta’kidlanadi.

Talabalarga diniy bilimlarni berishning asosi ham ularni hayoti davomida to‘g‘ri yashashi, gunohdan tiyilishi, naqshbandiya tariqatining asosi bo‘lgan poklik, xaromdan hazar qilish kabi hislatlarni rivojlantirish demakdir.

**7.«Nigohdosht» (Diqqatlilik).** Kishi o‘zini har qanday shaytoniy yomon yo‘llardan pok saqlashi kerakligini uqtirishdir.

Bo‘lg‘usi pedagoglar barcha o‘y-hayollarini asosiy vazifa o‘z bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratishi lozim, ma’nan o‘sib kamolga yetishi, hamda tashqi muhitning keraksiz ta’sirlaridan o‘zini ehtiyot qilishi kerak.

**8. «Yoddosht» (Izchillik).** Yodga ol. Bu shiorda har lahzada Alloh taoloni yodda tutish zarur. Bu inson o‘z diqqatini boshqara boshlaganini ko‘rsatadigan muhim psixologik holat. Ushbu hislatlar talabalarda diqqatini boshqara olish va bor kuchini kasbiy faoliyatini rivojlantirishga qaratishi kerakligini anglatadi.

*Ma’lumki, naqshbandiya tariqatida Bahouddin Naqshbandning o‘zlari asos solgan rashhalar alohida ahamiyat kasb etadi. Ular uchta bo‘lib, tariqatning 9,10,11-rashhalaridir:*

**9. «Vuqufi zamoniy» (Zamonaviylik).** Zamondan voqif bo‘lmoq. Hozirgi kunda talabalar ushbu qoidaga amal qilib zamon bilan xamnafas bo‘lishi va fan-texnika yangiliklaridan, texnologiyalardan foydalana olishi hamda ushbu bilimlarini kasbiy faoliyatlarida qo‘llay olishi kerakligini ko‘rsatadi.

**10. «Vuqufi adadiy» (Uzviylik)**- Adaddan voqif bo‘lmoq. Bo‘lajak pedagoglar bilim olganda tartib bilan har bir olgan bilimlarni eng boshidan chuqur o‘rganmoqliklari, soddadan murakkabiga tomon qunt bilan bilimlarni o‘zlashtirishlari maqsadga muvofiqdir.

**11. «Vuqufi qalbiy» (Samaradorlik) -** Qalbdan voqif bo‘lmoq. Bu shiorda qalbni Allohning zikri, fikri va amri ila mashg‘ul qilmoq haqida so‘z boradi.

Bo‘lg‘usi pedagoglar olayotgan bilimlari, bajarayotgan ishlarini qalban his etish va chin dildan bajarish, bu ishga bor kuch va g‘ayratlarini qaratmog‘i bu qoidani albatta hayotga tatbiq etish lozimligini ko‘rsatadi.

Naqshbandiya tariqatiga binoan, yuqoridagi o‘n bir muqaddas qoidalarni mukammal bajargan kishi komil inson darajasiga yetishadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Talabalarda kasbiy kompetentlikni takomillashtirish bo‘yicha tajriba-sinov ishlari”** deb nomlanadi va unda pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil qilish jarayoni va mazmuni, natijalarining matematik-statistik tahlili keltirilgan.

Tajriba-sinov ishlarini olib borishda eng avvalo asosiy e’tibor talabalarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishni naqshbandiya tariqati ilmiy merosini o‘rganish orqali yetkazish usullarini aniqlashga harakat qilindi. Naqshbandiya tariqati vakillarining talabalarda kasbiy kompetentlikni oshirishga ijobiy ta’sirini tashkil etish uchun amaliy faoliyat obyekti (tajriba maydoni) sifatida Guliston davlat universitetining Pedagogika fakulteti 5112100 – Texnologik ta’lim bakalavriat ta’lim yo‘nalishi, Buxoro davlat universiteti Pedagogika fakulteti 5112100 – Texnologik ta’lim bakalavriat ta’lim yo‘nalishi hamda Qo‘qon davlat pedagogika instituti San’at fakulteti 5112100 – Texnologik ta’lim bakalavriat ta’lim yo‘nalishida ta’lim olayotgan 528 nafar talaba respondent sifatida tajriba-sinov ishlariga jalb etildi.

**Tajriba-sinov ishining maqsadi** naqshbandiya tariqati vositasida talabalarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish va amalda tadbiq etish bo‘yicha tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish, natijalari asosida ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat bo‘ldi.

Talabalarga naqshbandiya tariqati haqidagi ma’lumotlarni berish orqali ularning kasbiy kompetentligini takomillashtirishda quyidagi tushunchalarni singdirishga harakat qilindi:

-ilm olish, huddi hunar egallash, kasbga ega bo‘lish kabi insondan ma’lum jismoniy, aqliy, ruhiy va irodaviy mehnatni talab qilishi ta’kidlanadi;

- naqshbandiya tariqati mutafakkirlari merosida kasbiy malakalar va hunar doirasidagi ma’lum talablar silsilasi ishlab chiqilgan bo‘lib, ularda kasbiy ta’limning nazariy asoslari namoyon bo‘ladi;

- har bir qobil va mo‘min musulmon inson biror kasb kor yoki hunar egasi bo‘lmog‘i lozim;

- kasb-hunar insonga o‘z halol mehnati orqali kun kechirishi uchun imkoniyat yaratadi va farovon turmushni ta’minlaydi;

- kasb-hunar insonga uning hayotini tartiblashtirish uchun berilgan va inson shu berilgan imkoniyatdan foydalanib yashashi darkor;

